

BOLALARNING BILIM OLISHIDA O'QITUVCHILARNING O'RNI

Qayumova Madina Utkurovna

SamDCHTI Ingliz tili fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

2-bosqich 2325-guruh talabasi

madinaqayumova96@gmail.com

+998979266661

Ilmiy raxbar: Zubaydova Nilufar Ne'matillaevna-

SamDCHTI ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada mакtabda bolalarning bilim olishida o'qituvchilarning o'rni qanchalik muhimligi haqida o'qiysiz va shu bilan birgalikda, bolalarga qanday ta'lim va tarbiya berish kerak, dars o'tish usullari, bolalarning e'tiborini darsga qaratish va bu holatda o'qituvchi qanday metod va ko'nikmalardan foydalanishi kerakligi haqida o'qiysiz.

Kalit

so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, mакtab, tajriba, bilim, ko'nikma, grammatika, ingliz tili, chet tillari, xotira, zamonaviy texnologiya, lug'at.

THE ROLE OF TEACHERS IN CHILDREN'S LEARNING

Abstract: in this article you will read about how important the role of teachers is in children's learning at school, and at the same time, how to educate and educate children, methods of teaching, focusing children's attention on the lesson and in this case you will read about what methods and skills a teacher should use.

Key words: teacher, student, school, experience, knowledge, skills, grammar, English language, foreign languages, memory, modern technology, vocabulary.

Bugungi zamonaviy dunyoda,yosh avlodga ta'lism-tarbiya berishda o'qituvchilarining o'rni juda muhim va o'qituvchilar yaxshi mutaxassis va o'z ishining ustasi bo'lishi talab qilinmoqda.Maktablarda o'quvchilar juda sho'x va o'qituvchilar ularning darsga bo'lgan qiziqishini ortirishi va dars jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanishi lozim.XI asr zamonaviy va yangi texnologiyalar asri hisoblanib, texnologiyalar kundan-kunga jadal rivojlanmoqda, har bir maktablarda zamonaviy texnologiyalar asosida dars o'tishlar talab qilinmoqda va o'qituvchilar kompyuter, proektor, zamonaviy doskalar asosida dars o'tishmoqda.Bugungi kunda boshlang'ich sinflardanoq chet tili darslari qo'yilgan va bolalarning bilim darajasi avvalgi bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'lmoqda.O'qituvchilar ham shuningdek yuqori tajribali va bilimli bo'lishlari kerak.

Ta'lism darg'alaridan biri yozganidek, «Agar o'quvchida o'qishga ishtiyoq bo'lmasa, qilayotgan barcha orzularimiz, tadqiqot va ixtiolarimiz sarobga aylanadi». O'quvchida ishtiyoq esa maktab ostonasiga, boshlang'ich sinf xonasiga ilk bor qadam qo'ygandan boshlanadi va bu ishtiyoqni uyg'otuvchi, albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchisidir.O'quvchining bilimli bo'lishi ham o'qituvchining tajriba va ko'nikmalariga bog'liq.O'qituvchilar institutda yaxshi o'qishlari va magistraturada yaxshi bilim olishi lozim va bundan tashqari,bolalarga dars o'tishda turli xil metodlar bor va ulardan samarali foydalanishlari lozim.Darsda bolalarning e'tiborini tortish,ularni fanga qiziqtirish va qiziqarli o'yinlar bilan darsni boshlash kerak.

Boshlang'ich ta'lismning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiymunosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishslash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiyl faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.Bog'cha yoshidagi bolalarga xorijiy tildan dars berishda o'qituvchi rangli rasmlar,kartochkalar va boshqa o'qitish metodlaridan foydalanishlari kerak.Chunki rasmlli va rangli kartochkalar yosh

bolalarning aqliy rivojlantiradi va fikrlash qobiliyatini oshiradi. Pedagogik faoliyat orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash har bir pedagogning muhim vazifalaridan biri, chunki dars o'tish jarayonida o'qituvchi pedagog tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni o'zlashtirilishiga qarab ham pedagog o'quvchining qiziqishlarini, qobiliyatlarini bilib olishi mumkin. Qobiliyat—insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat anglashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Maktabgacha ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan, har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim bo'limi haqida ushbu fikrlarni aytgan edilar: "Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, "Maktabgacha ta'lim" vazirligini tashkil etdik. Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog'chalar qurishimiz, ta'lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim". Har bir o'qituvchi o'z oldidagi vazifa va burchini bilgan holda, sitqidildan dars o'tishi bolalarga bilim va ko'nikma berishlari lozim. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan hayot, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiyligi va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati, fiziologiyasi va yosh xususiyatlarini tushunishi kerak. Shuningdek, pedagogik maktabgacha ta'lim sifati – ertangi kunimizni hal

qiladigan masala. Yosh avlodni komil inson qilib, kamolot sari yetaklashdagi erishgan yutuqlari uchun tarbiyachilar metodist, katta metodist tarbiyachi va boshqa shunga o‘xshash unvonlar bilan taqdirlanadilar.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining vazifasi juda mas’uliyatli va har tomonlama o’quvchilarga e’tibor berishi, ularning o’qish, yozish ko’nikmalarini rivojlantiradigan asosiy inson hisoblanadilar. Boshlang’ich maktab ta’limining maqsadi – o’quvchilarni og‘zaki va yozma nutqda ravon qilish va ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash, go‘zallikka intiluvchi, uni yurakdan his eta oladigan go‘zallik yaratishga intiluvchi insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Yozishni o‘rgatishdan asosiy maqsad yosh o’quvchilarga murakkab yozish jarayonini o‘rgatish va ularda chiroylar yozish malakalarini shakllantirishdan iborat. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ular o’quvchilarning intellektual rivojlanishiga, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga, ongli o’qish va yozish malakalarini shakllantirishga, daftar bilan ishslash ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir o’qituvchi institut va magistraturada ko‘proq o‘qishi kerak, ular bolalarning aql-zakovatini oshirishga, shuningdek, yosh avlodni bilim olishga, tajriba orttirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. H Muhiddinovna Semelfaktiv Fe’llarning Leksik Va Aspektual Turkumlari. Fan, Ta’lim Va Amaliyotning Integrasiyasi 3 (5), 277-282, 2022
2. H.S.Gafforov, N N Zubaydova Gender and its effect on language acquisition Academic research in educational sciences (5), 217-220, 2021.
3. Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592.
4. Nilufar Ne’matillaevna Zubaydova. The Role Of Country Studies In Teaching English. Theoretical & Applied Science, 310-312, 2020.
5. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. “Teaching English Language To Primary Level Pupils At School” Ijodkor O’qituvchi 3 (36), 103-105, 2024

6. Valieva, N. (2022). Marie-Laure Derat, L'énigme d'une dynastie sainte et usurpatrice dans le royaume chrétien d'Éthiopie du XIe au XIIIe siècle. *Aethiopica*, 25, 258-261.
7. Валиева, Н. (2021). «Житие Лалибэлы»: новые перспективы исследования. *Библия и христианская древность*, 3(11), 197-214.
8. Valieva, N. (2021). Prof. Geta (t) chew Haile:(approx. 04/19/1931–June 10, 2021). *Scrinium*, 17(1), 16-19.